



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>MAXDUM VOSILIY FONDI VA UNDAGI "XAMSA"NING
QO'LYOZMA NUSXASI**Mahmud Hasaniy**

Tarix fanlari doktori,

O'zR FA Sharqshunoslik instituti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Marhamat, Vosiliy fondi, "Xamsa", Amir Haydar, kotiblar, xattotlik, Ohugir tumani.

Annotatsiya: Maqolada Andijdon viloyati Marhamat tumanidagi Maxdum Vosiliy fondida saqlanayotgan Alisher Navoiyning "Xamsa"si haqida ma'lumot beriladi. Mazkur nusxa Buxoro xoni Amir Haydar davrida Ohugir nomli tumanda ko'chirilgan. Qo'lyozma xattotlik san'ati bilan ko'chirilgan bo'lib unda Navqimmatigaoiyning "Tarixi muluki ajam" nomli risolasi ham mavjud. "Xamsa"ning bu nusxasi ham Navoiy "Xamsa"sining nusxalari va kitobat tarixini o'rganishda o'z ega.

KIRISH

Mulla Hasanjon Maxdum ibn Mulla Muhammad Ibrohim (Maxdum Vosiliy, 1898-1979) 1920 yildan 1926 yilgacha Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil olgan edi. So'ng o'z vatani Marhamatga qaytib ijodiy faoliyat olib borgan. Turli tazyiqlar ostida yashashiga qaramay, o'zidan turli sohaga oid 44 ta asar yozib qoldirgan. Hozirda u haqda ikkita magistrlik dissertatsiyasi yoqlangan. G'azallar devoni nashr etilgan. U yashagan hovlida Ma'naviy Meros Markazi ishlab turibdi. Markazda mingga yaqin arab, fors va turkiy tillardagi asarlar saqlanmoqda Vosiliy ayni paytda valiyulloh edi, uning karomatlari haqida kitob nashr qilingan.

Vosiliy nomidagi Markazda 41-ashyo raqami ostida Alisher Navoiyning Buxoro amiri Amir Haydarning (hukmdorlik yillari 1800-1826-yillar) davrida ko'chirilgan nusxasi saqlanmoqda. Bu "Xamsa" dastlab Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida yashovchi bir kishining qo'lida otasi tomonidan avaylab saqlangan, keyinchalik uni Markazga tuhfa qilgan. Xattotlik uslbi bilan ko'chirilgan bu nusxananing avvalida Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asari ham ilova qilingan.

Qo'lyozmadagi sarlavhalar qizil siyohda, matni esa qora tushda ko'chirilgan. Xamsaning o'lchovi 36/23 sm.dan iborat. 296 varaq (580 bet). Ko'chirish yili hijriy 1229 (milodiy 1813-y.). Qo'qon qog'oziga yozilgan, Muqovasi qalin kartondan. Muqovada kotibning nomi "Amali Abdurrashid Qodiriy" (Abdurrashid Qodiriyning ishi) deb ko'rsatilgan. Kotibning nomi tagida

hijriy 1274 (milodiy 1857) yil sanasini ko'rish mumkin. Bundan ma'lum bo'ladki, Xamsa qayta muqovalangan.

Mazkur Xamsa ikkita kotibning qo'li bilan ko'chirilgan. Odatda katta hajmdagi asarlardan nusxa olishda podsho yoki hokimlar o'z davridagi kotiblarga taqsim qilib bergan. Kotiblardan biri o'zini Mulla Qo'ldosh deb ko'rsatadi. "Hayrat ul-abror" dostoni Mulla qo'ldoshning qo'li bilan ko'chirilgan bo'lib, uning o'zi bu haqda shunday deydi:

Yozdi avroqg'a xati beanjom,

Mulla Qo'ldosh xasta zahroshom.

"Farhod va Shirin" dostoni oxirida "In kitob dar tumani Ohugir ba itmom rasid" (Bu kitob Ohugir tumanida tamomiga yetdi) degan ma'lumot bor. Ammo, kotib o'z nomini ko'rsatmagan. Xatiga qaraganda, bu dostonni ham Mulla Quldosh ko'chirganga o'xshaydi. Shundan so'ng kotib Navoiyning 10 ta g'azali va bitta muxammasini ilova qilgan.

"Layli va Majnun" dostoni Mirzo Sayyid Ma'sum tomonidan ko'chirilgan bo'lib, buni quyidagi baytdan bilish mumkin:

Yozdi avroqg'a xati beanjom,

Mirzo Ma'sum xasta zahroshom.

Kotib bu yerda bishqa biror ma'ulmot keltirmagan. Ammo, "Sab'ai sayyor" dostoni oxirida Mirzo Ma'sum kerakli ma'lumotlarni ilova qilgan. Ma'lum bo'lishicha, kotib yaxshigina shoir bo'lgan. Navoiyning fazilatlarini va Xamsa haqida 60 misradan iborat she'r yozgan. Ko'chirish qaysi davrda yuz berganini quyidagicha bayon qiladi:

Bo'ldi bu nusxai sharif tamom,

Yavmi yakshanba erdi bul itmom.

Sana ming ikki yuz yigirma to'qquz,

Rajab oyining axiyrida bu kunuz.

Bu baytlardan doston 1229 hijriy (milodiy 1813) yili, rajab oyining oxirida, yakshanba kunida kitobat qilingani ma'lum bo'ladi. Kotib o'zi yashagan davr haqida ham ma'lumot keltirib, quyidagicha yozadi:

Asri sulton Amir Haydar shoh,

Erdi ul vaqt bir yo'l ogoh.

Erdi sulton bo adolatu dod,

Kim, Buxor viloyatig'a imod.

Ko'rinib turganidek, Xamsa Buxoro amiri Amir Haydar davrida ko'chirilgan ekan. Amir Haydarning hukmdorlik yillari 1800-1826-yillarga to'g'ri keladi. U Amir Shohmurodning (hukmdorlik yillari 1785 - 1800) o'g'li bo'lib, uning otasi davrida Buxoro bir muncha tinch va har tomonlama rivojlanish bo'lsa-da, biroq Amir Haydar davrida urushlar va qo'zg'olonlar ko'p bo'lgan. Bu kotibning hayotiga ham ta'sir qilmay qolmagan. Shuning uchun u yozadi:

Qoriyo, agar ko'runsa sahvi qalam,

Afu nishi birla ko'torg'il ham.

Xotirim asru besarishta erdi,

Jigari qon, bag'ri pora erdi.

Oxirgi "Saddi Iskandariy" dostoni oxirida kotibning nomi keltirilmagan, ammo Xamsa 1229 (1813) yili ko'chirilgani qayd etilgan.

Yozilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Xamsa Amir Haydar yoki uning saroyi kitobdorlari tomonidan ko'chirtirilgan bo'lib, zamonadagi alg'ov-dalg'ovlar sababli mukammal badiiy ziynatlarga ega bo'lmagan. Har bir dostonning avvalida unvonga joy qoldirilgan bo'lsa-da, biroq naqsh ishlanmay qolgan. Shunday bo'lsa-da, mazkur Xamsa o'tmish madaniy hayotini va kitobat san'atini o'rganishda o'z qadru qimmatiga ega.